

O‘SMIRLARNING VIRTUAL OLAMDAN SAMARALI FOYDALANISHI VA ULARNI OTA-ONALAR TOMONIDAN NAZORAT QILISH YUZASIDAN KO‘RILADIGAN CHORALAR.

Xatamov Boburjon Qosimjon o‘g‘li

Oila va xotin-qizlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: O‘smir yoshidagi bolalar bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, video o‘yinlar olamiga ko‘p vaqt sarflayotganliklari ko‘pchilik ota-onalarning muammosi. O‘smirlarning virtual olamdan noto‘g‘ri, maqsadsiz foydalanishlari oiladagi avlodlar o‘rtasida tushunmovchiliklar ba’zida ziddiyatlarga sabab bo‘lmoqda. Insonlarning e’tiborini tortish maqsadida OAVlarda, ijtimoiy tarmoqlarda dunyo aslidagidan yomonroq qilib tasvirlanadi. Bu esa odamlarni tushkunlikka soladi va qaror qabul qilishda adashtiradi, ayniqsa o‘smirlarni. Zamonaviy texnologiyalar afzalliklarini e’tirof etgan, holda bu olamning zararlaridan farzandlarni qanday himoya qilishimiz kerak, necha yoshdan foydalanishlariga ruhsat bersak bo‘ladi? Shu kabi savollarga dunyodagi bir nechta mutaxassislar fikrlarini tahlil qilib o‘rganib quyidagi xulosalarga kelindi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, virtual olam, internetga qaramlik, o‘smirlik davri, ota-ona nazorati, avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar, bola va texnologiyalar, o‘smir va virtual olam, xavfsizlik sozlamalari.

Abstract: The fact that teenage children spend a lot of time in the world of social networks and video games today is a problem for many parents. Misunderstandings between the generations in the family are sometimes the cause of conflicts due to the wrong and aimless use of the virtual world by teenagers. In order to attract people's attention, the media and social networks portray the world as worse than it actually is. This discourages people and confuses them when making decisions, especially teenagers. Having recognized the benefits of modern technologies, how should we protect children from the harms of this world, and at what age should we allow them to use them? The following conclusions were reached after analyzing the opinions of several experts in the world on similar questions.

Key words: social networks, virtual world, Internet addiction, adolescence, parental control, intergenerational relations, child and technology, teens and virtual world, security settings.

O‘smir yoshidagi bolalar bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, video o‘yinlar olamiga ko‘p vaqt sarflayotganliklari ko‘pchilik ota-onalarning muammosi. Sababi o‘smir yoshidagi bolalar foydalanish me’yorlariga ko‘pincha amal qilmaydilar, ya’ni, virtual olamga tushganidan keyin o‘zlarini boshqarolmay qoladilar. Qachon

to'xtash kerakligini aksar hollarda o'zlari hal qilolmaydilar. Afsuski ota-onalarning zamonaviy texnologiyalar va ulardagi yangi dasturlar, o'yinlar haqidagi bilim va ko'nikmalari yetarli darajada emas. Bunga turli iqtisodiy, texnologik, moddiy resurs yetishmovchiligi kabi omillar sabab bo'lgan. AQSH 2021-yilda yoshlarning ruhiy salomatligini himoya qilishga qaratilgan maslahatnoma chiqardi, unda ijtimoiy tarmoqlarning bolalarga ta'sirini o'rganish muhimligi tan olinadi. O'smirlarning virtual olamdagi noto'g'ri, maqsadsiz foydalanishlari oiladagi avlodlar o'rtasida tushunmovchiliklar ba'zida ziddiyatlarga sabab bo'lmoqda. Ota-ona, bobo-buvi va o'smirlar o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlar buzilishi ortidan yoshlar o'zlariga tashqaridan yoki virtual olamdagi o'zi ko'rmagan tanishidan maslahat olish, dardlashish holatlarini keltirib chiqarmoqda. Bu esa oiladagi avlodlar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual olamga qaramlik turli salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi tadqiqotlarda isbotlangan jumladan, vaqt isrofi – o'zlari uchun foydali bo'lgan maktab darslari, qo'shimcha kurslar, sport mashg'ulotlari, kitob o'qish, hunar o'rganish o'rniga ko'p vaqtlarini virtual olam qarshisida o'tkazib yubormoqdalar. Bunday vaziyatlarda ularni ruhiy va jismoniy jihatdan barqaror rivojlanishlariga birinchi navbatda ota-onalari, pedagoglar ma'sul hisoblanadi. Iqtisodchi Behzod Hoshimov virtual olamda yangiliklar o'qishga ko'p vaqtni sarflash inson uchun azobli o'ylar, ruhiyat uchun tushkunliklarga sabab bo'lishi haqida quyidagilarni aytib o'tdi: "Men o'zim uchun qilayotgan ishlarimdan ko'pi samarasiz natija beradi ayniqsa bilim olishda. Men yangiliklar, gazetalarni ko'p o'qish, internetda ko'p o'tirish yaxshi narsa deb o'ylamayman. Lekin o'zim ko'p o'tiraman. Men o'ylaymanki, internetda o'tirish bizning aqlimiz uchun xuddiki shakardek. Chunki shakar badanimizga tez ta'sir qiladi, lekin ma'noga ega emas, balki zararli hamdir, agar men o'zimni-o'zim boshqara olganimda, ideal bo'la olganimda internetga kam vaqt sarflagan bo'lar edim. Mening katta xatolarimdan biri internetga ko'p kiraman, ko'p yangiliklar o'qiyman, obunalarim ko'p, kuzatadigan kanallarim ko'p. Bu yangiliklar oqimi meni qiynaydi. Agar men o'z ustimda jiddiy shug'ullanmoqchi bo'lsam "axborot parhez"ini qilaman. Bu degani iloji boricha kamroq New York Times o'qish, iloji boricha kamroq ijtimoiy tarmoq kanallarini o'qishdir. "Yangiliklarni doimiy va ko'p o'qish – yomon"¹ deganimning sababi shundaki, Agar siz biror narsa ustida jiddiy shug'ullanmoqchi, jiddiy fikr yuritmoqchi bo'lsangiz bunda siz qidirib o'qigan ma'lumotlar ichida yangiliklardan ko'ra yomonroq manba yo'q. "Inson o'zining atrofiga qarab namuna oladi" deyiladi lekin bunday namuna olish ham xato. Sababi har bir inson alohida qobiliyatlari mavjud. Ammo virtual olamdagi shaxslarga qaraganda inson o'zining atrofidagi shaxslardan ibrat olishi nisbatan yaxshi. Chunki virtual olamdagi shaxs boshidan qanday qiyinchiliklar o'tkazgani yoki qanday sharoitda voyaga yetganini tasavvur qilish qiyinroq. Dunyo OAVlarida, ijtimoiy tarmoqlarda aslidagidan yomonroq qilib tasvirlanishi haqida Hans Rosling shunday deydi: "Urush, zo'ravonlik, tabiiy va texnogen ofatlar, korrupsiya. Vaziyat yomon va vaqt o'tgani sari yana ham yomonlashib borayotgandek tuyuladi, to'g'rimi? Boylar yana boyib kambag'allar yanada kambag'allashib ketyapti. Kambag'allar soni ortmoqda. Agar favqulodda

¹Nimalardan voz kechishimiz kerak?. B.Hoshimov

chora ko‘rmasak, tez orada tabiiy resurslarimiz ham tugab bitadi. Umuman olganda g‘arbliklarning aksariyati OAVlarda shunday manzarani ko‘radi va miyasida ham shu fikrlar aylanadi. Men buni o‘ta dramatik dunyoqarash deb atayman. Bu odamni stressga solidi va qaror qabul qilishda adashtiradi.”² Virtual olamdagi yangiliklarning asosiy biznes modeli insonlarni qandaydir mavzular haqida qayg‘urishga majburlash hisoblanadi. Ya’ni ular ma’lum muammoni ko‘p gapirishadi va bu muammoni sizning muammoyingiz qilishga harakat qilishadi. Jurnalist, blogerlar qaysidir muammo haqida narsa yozsa yoki video olib chiqsa shu muammo haqida kengroq tushuncha berishi kerak. Ko‘p ijtimoiy tarmoqda yangiliklar kuzatuvchi shaxs uchun esa bu samarali emas sababi bu xabarlarini o‘qib butun dunyo tashvishlari sizning yelkangizda bo‘lib qoladi, bu sizga salbiy bosim qiladi. Bu har qanday inson ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi. Yangiliklarni o‘qish, ayniqsa statistikani yaxshi bilmay turib o‘qish, jurnalist, blogerlar bilan gaplashish insonda dunyo haqida salbiy taassurot uyg‘otib tushkunlik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Ular aytadiki dunyoda urush, kasallik, ekologiya yomon, iqtisodiy inqiroz, ochlik, korrupsiya darajasi ortyapti deb sizning e’tiboringizni jalb qilishga harakat qilishadi, aslida dunyo yaxshi. Dunyo o‘tmishda insonlar uchun hozirgidan ko‘ra boyroq, tinchroq, farovonroq, xavfsizroq davri bo‘lmagan. Lekin yangiliklar ichidagi odamlar uchun hozirgi dunyodan xunukroq, jirkanchroq davri yo‘q. Shunday dunyo haqida eng togri xulosalarni qanday chiqaramiz atrofimizdagi insonlar tajribasidanmi, virtual olamdanmi yoki statistikadanmi? Eng maqbul variant statistikaga qarab xulosa chiqarish, lekin ko‘p odamlar buni qilolmaydi sababi bu ko‘proq bilimni, jiddiyroq fikrlashni talab qiladi. Shuning uchun ko‘plab insonlar atrofidagi insonlarga qarab xulosa qilishadi. Ammo eng yomon turdagi xulosalar bu yangiliklarga qarab xulosa qilishdir. Chunki yangiliklarda, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘pincha salbiy xabarlar ko‘proq tarqaladi, shov-shuv bo‘ladi.³ Ijobiy yangiliklar tarqalishi, o‘qishlar soni kam bo‘lganligi uchun ham bunday xabarlar nisbatan kamroq. Insonlarning xatolaridan biri informatsion oqim ichiga tushib qolishdir. Ayniqsa o‘smir yoshidagi bolalar qarovsiz qoladigan bo‘lsalar ular uchun vaqtlarini qiziqarli qilishning eng oson yo‘li ijtimoiy tarmoqlarga kirish, video o‘yinlar o‘ynash hisoblanadi. Ularda hali o‘z vaqtlarining qadriga yetish tushunchasi yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Aksar o‘smirlar yarim kechagacha, tuni bilan vaqtlarini qanday qilib kompyuter yoki mobil telefon ekrani qarshisida vaqt o‘tkazishlarini sabablaridan biri ham shunda. Undan avvalo o‘zimiz samarali foydalanishni o‘rganishimiz kerak, keyin esa farzandlarimizga o‘rgata olamiz va bu kerak.

O‘smirlar bolalarni ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz va samarali foydalanishlari uchun ota-onalar, pedagoglar quyidagilarga e’tibor berishlari lozim. “O‘smir yoshidagi bolalarga ijtimoiy tarmoqlarni ta’qiqlash har doim ham ularni xavfsiz saqlashga yordam bermaydi”⁴. Chunki o‘smirlik davrida o‘smir o‘zini kattalardek:

² Factfulness. H.Rosling – Toshkent: Nihol., 2021-y 26-bet

³ Nimalardan voz kechishimiz kerak? B.Hoshimov

⁴ Farzandlaringizga Instagramni taqiqlash ularni xavfsiz saqlashga yordam bermaydi. Bu maslahatlar yordam beradi. H.Kelly “The Washington post” 2021-y

o‘z fikriga ega, mustaqil inson sifatida ko‘radi. O‘smir yoshi va undan kichik yoshdagi bolalarni virtual olamdan samarali va xavfsiz foydalanish bo‘yicha ota-onalar, pedagoglar uchun quyidagi tahliliy maslahatlarni jamladik.

Facebookning sobiq xodimi Frensis Haygen Facebook va Instagramning yosh bolalar va o‘smirlar uchun xavfliligi haqida fikr bildirib o‘tdi. Bugungi kunda ko‘plab ota-onalar o‘smir farzandlarining smartfonlardan samarali foydalanishi uchun o‘z qoidalarini o‘rnatish haqida qayg‘ura boshlagan. Ko‘plab ota-onalar va maktab jamoalari allaqachon ma‘lum tartiblar ham o‘rnatgan. Xattoki davlatlar ham misol uchun Niderlandiyada maktab o‘quvchilarining mobil telefon va planshetlardan foydalanishi 2024-yil 1-yanvardan ta‘qiqlanishi to‘g‘risida hukumat qarori e‘lon qilindi⁵. Telefonlar bilan birga, darslarda smart-soatlar va planshetlardan foydalanish ham man etiladi. Faqat bu qurilmalar kerak bo‘ladigan raqamli savodxonlik darslari hamda sog‘lig‘i yoki nogironligi sababli bu qurilmalardan foydalanishi shart bo‘lgan o‘quvchilar uchun istisnolar ko‘zda tutildi. Bu e‘longa izoh qilib Niderlandiya ta‘lim, madaniyat va fan vaziri Robert Deykgraf quyidagi so‘zlarni aytdi: “Mobil telefonlar deyarli hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo‘lishiga qaramasdan, ularga sinfxonalarda o‘rin yo‘q. O‘quvchilar diqqatlarini jamlashi va yaxshi tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim. Ilmiy tadqiqotlardan bilamizki, mobil telefonlar ta‘lim jarayonini buzadi”. Bizchi o‘smirlarimizning internetdagi xavfsizligini ta‘minlash uchun yetarlicha harakat qilyapmizmi?

Aksariyat ijtimoiy media ilovalari 13 va undan katta yoshdagi bolalar uchun ochiq va ularning aksariyati o‘smirlar orasida juda mashhur bo‘lib ulgurgan, ayniqsa pandemiya davrida bu ko‘rsatkich oshib ketdi, an’anaviy ijtimoiylashuv ko‘rinishlari o‘rnini virtual ijtimoiylashuv egallab bormoqda. Haygen ijtimoiy tarmoq tanqidchilari va tadqiqotchilari yillar davomida aytgan so‘zlarini takrorladi: “Ijtimoiy media o‘ziga qaram qilib, bu o‘smirlar ongini turli zararli fikrlar orqali zaharlaydi va ruhiy muammolarga hissa qo‘shadi”. O‘smirlik davrida o‘smir oilasidan tashqaridagi mashhur insonlarga taqlid qilishga, ulardan ibrat olishga harakat qiladi. O‘sha mashhur insonlar jamiyat, tabiat uchun foydali ish qilyaptimi yoki aksincha buning aksar o‘smirlar o‘ylab o‘tirmaydi. Shu sababidan virtual olamdagi qaysidir oddiy, ma‘nosiz video ham yoshlar orasida trend sifatida aylanmoqda.

Haygenning va ko‘plab pedagog-psixologlar fikricha “O‘smirlarda o‘zini-o‘zi boshqara olish qobiliyati yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. O‘smirlar ochiqchasiga aytadilar: “Instagramdan foydalanganimda o‘zimni yomon his qilaman va to‘xtata olmayman”. Biz bolalarni himoya qilishimiz kerak”. Bunday holatlarda ijtimoiy tarmoq, video o‘yin, internet uchun “vaqt cheklovi”ni o‘rnatib undan samarali foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish kerak. Bu o‘smirdan ham uning ota-onasidan ham sabr va iroda talab qiladi. Mashhur ijtimoiy tarmoqning sobiq hodimining yuqoridagi iqrori ota-onalar farzandlarining xavfsizligi haqida ko‘proq qayg‘urishi kerakligiga bir signaldir. Chunki biznes kompaniyalar birinchi o‘ringa

⁵ <https://www.iamexpat.nl/education/education-news/netherlands-ban-mobile-phones-school-classrooms>

o‘zlarining foydalarini qo‘yishadi. Frensis Xaygen qonun chiqaruvchilarga “umumiy manfaatimiz uchun” mazmunli islohotlar zarurligini aytdi. Bu ma’lumotlarni o‘qib farzandlaringizga barcha ijtimoiy tarmoqlarni ta’qiqlayman degan fikrga borishga shoshmaslik kerak. Sababi o‘smirlar qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, qachondir ijtimoiy tarmoqqa kirish yo‘lini topishadi. Virtual olamdan foydalanish ustida o‘zaro tortishib qolishingiz ham mumkin. Bunday holatlar tez-tez uchrab ham turibdi. Siz ijtimoiy tarmoqlarni ta’qiqlagan vaqtingizda qolgan ota-onalarning hammasi ham ta’qiqlamaydi. Eng katta muammo o‘smirlar bilan katta avlod vakillarining o‘zaro ochiq muloqotning yetishmasligi hisoblanadi.

“Bolalarni ijtimoiy tarmoqlarda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun kamida 13 yoshga to‘lishini kutish kerak, lekin avvalroq qanday foydalanish kerakligini tushuntirib borish zarur”⁶. Texnologiya va bolalar bo‘yicha mutaxassis Devorah Xaytner “Bolalarga 11 yoki 12 yoshdan boshlab tushuntirishlarni boshlash kerak”⁷, deydi. Ijtimoiy media qanday ishlashini o‘z smartfonlaringizda birgalikda ishlatish orqali tushuntirish; Instagram postlari yoki TikTok muhitini ko‘rsating, siz bolalarga ushbu ilovalarning xavf-xatarlari va imkoniyatlari bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishingiz zarur.

Bola 13 yoshga to‘lganda, virtual olamga shunchaki tashlab qo‘ymaslik kerak, albatta ma’lum darajada nazorat, ma’lum funksiyalarga ta’qiq bo‘lishi kerak. Bolaning hissiy tayyorgarligini hisobga olish zarur. “Hissiy tayyor ekanligini qayerdan bilamiz? Agar bolalaringizdan “You tube”ni tomosha qilishni to‘xtatishni yoki video o‘yinni o‘chirishni so‘rasangiz, ular sizni eshitib, buni qilishadimi? Agar ular o‘z-o‘zini tartibga solishga qodir bo‘lsa, bu ularni kamroq nazorat qilsangiz bo‘ladi degani. Lekin aslo nazoratsiz qoldirmaslik zarur. O‘z-o‘zini tartibga solish belgilarini qidiring”, deydi Stenforddagi “Yoshlarning ruhiy salomatligi va farovonligi” markazi direktori Vikki Harrison.

Ular ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni boshlaganlarida ular a‘zo bo‘lgan guruhlardagi yozishmalardan va insonlardan xabardor bo‘ling.

Bir vaqtning o‘zida hamma dasturlardan foydalanishga ruhsat bermang, 13 yoshlik bolada media ko‘nikmalarni asta-sekin rivojlantirish yaxshi. O‘smirlarga bir vaqtning o‘zida bitta ijtimoiy tarmoq xizmatini o‘rnatishga ruhsat berish va faqat oila a‘zolari, yaqin do‘stlar kabi kichik guruhlar bilan muloqot boshlashga ruhsat berish kerak. Agar qizlaringiz ijtimoiy tarmoqlarida bo‘yanish, moda bo‘yicha guruhlar, raqsga bag‘ishlangan ma’lum bir guruhlar bo‘lsa, siz ham o‘sha davralarda nima sodir bo‘layotganidan xabardor ekanligingizga ishonch hosil qiling.

Harrison fikricha: “Ota-ona real hayotda bo‘lganidek, farzandlarining onlayn muloqot qiladigan jamoalarida ham dastlabki bilimlarni berishi lozim”.

⁶ Farzandlaringizga Instagramni taqiqlash ularni xavfsiz saqlashga yordam bermaydi. Bu maslahatlar yordam beradi. H.Kelly “The Washington post” 2021-y

⁷ Screenwise: Bolalarning raqamli dunyoda rivojlanishiga (va omon qolishiga) yordam berish. D.Xaytner

O‘smirning ota-onasi sifatida farzandingiz xavfsizligi uchun bir qator ilova va ijtimoiy tarmoqlardagi sozlamalar yordamida bolalaringizning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini ma’lum darajada nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Smartfonlardagi ota-ona nazorati orqali ularning YouTubeda qancha vaqt sarflashini cheklashingiz, ma’lum soatlarda Wi-Fini uzib qo‘yadigan qilib sozlashingiz, ular xavfli kontent bilan duch kelganda ogohlantirish olish uchun “Bark” kabi xizmatdan foydalanish mumkin. Google imkoniyatlari yordamida zararli, pornografik, qo‘rqinchli ma’lumotlar chiqishini ta’qiqlashingiz mumkin!

Shuningdek google “Play market”ida “My hours” kabi ilovalar yordamida telefondagi har qanday ilovadan foydalanish vaqtini ma’lum soatlar bilan chegaralashingiz, ilovalardan bir kunda, bir haftada, bir oyda necha soat foydalanilganini ko‘rib turishingiz mumkin. Bunday ilovalarni aldab bo‘lmaydi. Qolaversa, o‘smir o‘ziga berilgan bu vaqtdan foydalanib virtual olam o‘ziga tortayotgan “xumor”ni bosib oladi, o‘zini nazorat qilishni, vaqtni to‘g‘ri boshqarishni o‘rganadi; kerakmas, zararli narsalarga vaqt ajratishdan o‘zini tiyadi. Ota-ona esa shu paytdan foydalanib o‘smir farzandi nimalarga qiziqishini bilib, real hayotida shu qiziqishiga aloqador qo‘shimcha fan va hunar to‘garaklariga berishi mumkin. Bu o‘smirning shaxs bo‘lib, mutaxassis bo‘lib shakllanishida muhimahamiyat kasb etadi. Ota-onasi bilan munosabatlari ham ziddiyatlarga qadar borishi oldi olinadi. Me’yorni unutib qo‘yyapti yoki qayta-qayta shu virtual olamga, video o‘yinlariga murojaat qilyaptimi demak u endofrin (baxt) garmonini boshqa mashg‘ulotlardan topa olmayapti, boshqa hunar, boshqa mashg‘ulot, jonli o‘yin haqida u bilmaydi yoki hayotida bu mashg‘ulotlar salbiy taassurot qoldirgan. Ota-ona va pedagoglar bu muammo ustida ishlashlari lozim bo‘ladi. Mutaxassis psixolog ko‘rigi, maslahati ham kerakdir. Agar bola vaqtini foydali kasb-hunar, fanga ajratmayotgan ekan, u jismonan katta bo‘lsa ham aqlan va ruhan kamoloti orqada qola boshlaydi. Tengdoshlari qilayotgan ishlarni eplolmayotgan o‘smirda esa ruhiy tushkunlik, o‘z-o‘ziga ishonchning pasayishi, ijtimoiy yakkalanish holatlari paydo bo‘ladi. U o‘zini qulay his qiladigan, o‘ziga o‘xshagan do‘stlari bor, online “vazifalar”ni zo‘r uddalab ruhiy ozuqa oladigan virtual olamiga yanada chuqurroq kirib ketib qoladi.

O‘smirlarni ko‘p nazorat qilish ham ularning asabiga tegadi va sizdan yashirincha foydalanish yo‘llarini qidirishadi shuning uchun nazorat qilishda, ta’qiqlashda me’yorni unutmagan yaxshi. Ko‘proq ta’qiqlashlardan emas, o‘sha yomon kontentlarning qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi haqida tushuntirishlar berish yaxshi samara beradi. Farzandingizga “Nima uchun bundan foydalanyapman?” degan savolni berishga o‘rgating. Undan so‘ng “Bunga sarflaydigan vaqtimga boshqa qanday foydali ishlar qilishim mumkin?” degan savollarni berishi kerak. Mayli o‘ynasin, ijtimoiy tarmoqda o‘tirsin lekin me’yorida faydalanishni bilishi kerak. Me’yoriy vaqtni dastlab siz o‘rnatgan bo‘lsangiz keyin bolaning o‘zi o‘rnatsin. Bir oq varoqqa virtual olamdan necha soat foydalansa me’yorda bo‘lishi, necha soatdan oshib ketsa zararli bo‘lishi; qaysi dastur va kontentlar foydali, qaysi kontentlar zararli ekanligini o‘smirning o‘zi yozib chiqsin ota-ona sifatida bu kontentlarni to‘ldirishga yordamlashing. Yozgan kontentlarizni

nimalari foydali ekanligi-yu nimalari zararli ekanligini batafsil tushuntiring. Farzandingiz yosh bola emas u o'smir, o'smirlar o'zini ulg'aygan shaxs sifatida biladi va atrofida ular bilan kattalardek munosabatda bo'lishini kutishadi. "Ota-onalarga yashirin nazorat qilishdan farqli o'laroq, bu haqida o'smir bilan ochiqcha gaplashgan ma'qul"⁸.

Farzandlaringiz har kuni internetda nimalar bilan shug'ullanayotgani haqida so'rang va bu o'ziga xos "hisobot"ni ijtimoiy tarmoqlarga kirish shartiga aylantiring. Ulardan onlaynda nima ko'rayotgani va hatto qanday yangiliklar haqida eshitayotgani haqida so'rang. Ularga ko'rgan narsasi bilan ishlash uchun imkon bering, ularga nima haqiqiy yoki yo'qligini tushunishga yordam bering. Ba'zi xato narsalarni o'smirning o'zi tushunib yetishi ham uning shaxs sifatida shakllanishiga, o'z fikriga ega bo'lishida katta ahamiyatga ega. Olinayotgan axborotlarni tanqidiy fikrlash orqali tahlil qilishga o'rgatish har bir ota-ona va maktab jamoasining vazifasi bo'lishi zarur. Tanqidiy fikrlashda olinayotgan ma'lumotga ko'r-ko'rona ishonib ketmay balki uni 3-4 turli manbalardan tekshirib ko'rish, uni kim, nima maqsadda tarqatayotgani bilan qiziqib ko'rish kabilar kiradi. Virtual olamda o'z manfaati yo'lida insonlarning ishonchini suiste'mol qilish oddiy holat.

Ba'zi ilovalar o'smirlarga internetdan xavfsizroq foydalanishlari uchun ba'zi sozlamalarni taklif qiladi. Farzandingiz internetda o'zini xavfsiz his qilishlari uchun xavfsizlik sozlamalaridan foydalanishlari zarur.

"Google voyaga yetmaganlar va ularning vasiylariga qidiruv tizimining rasm natijalaridan fotosuratlarini o'chirishni so'rash imkoniyati mavjud. Googlening bu harakati Facebookning sobiq xodimi Instagram yosh ayollar va qizlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi tadqiqotlarni oshkor qilganidan keyin yuz berdi. Instagram bolalar uchun ilovasining maxsus versiyasini e'lon qildi, keyin tanqidchilar bu noto'g'ri fikr deb aytishganda, uni qaytarib oldi. Avgust oyida Apple bolalarning aniq tasvirlari uchun telefonlarni skanerlashni boshlashini e'lon qildi, keyin esa maxfiylik bilan bog'liq xavotirlar fonida buni qaytarib oldi"⁹. Yirik texnologiya kompaniyalari bolalarning xavfsizligi va maxfiyligini Internetda yaxshilashga harakat qilmoqda - ammo ishning aksariyati hali ham ota-onalarga to'g'ri keladi.

Biz farzandlarni nazorat qilish kerakligi haqida gapirar ekanmiz lekin bundagi me'yorni ham unutmasligimiz kerak. Ortiqcha nazorat bosimi bolalarni ota-onasidan uzoqlashtirishi, oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Hamma o'smirlar ham ota-onasi o'smir haqida qayg'urayotganini his qilmaydi. "Ota-onalar farzandining har bir ishini internetda kuzatib borishi standartga aylanganidan biroz xavotirdaman. Bu o'rta sinfnig ota-ona tarbiyasining standartiga aylanib qoldi, bunda bola o'zi mustaqil boshqa odamlar bilan uchrashmagani uchun erkinligi

⁸Screenwise: Bolalarning raqamli dunyoda rivojlanishiga (va omon qolishiga) yordam berish. D.Xaytner

⁹O'smir farzandingizga Internetda o'zini xavfsiz his qilishiga yordam beradigan xavfsizlik sozlamalaridan foydalaning. Tatum Hanter 2021-yil

cheklanganligini doimiy his qilib turadi, deydi San-Fransiskodagi media dizayn bo'yicha maslahatchi Xarrell.

Onlayn xavfsizlik haqida gap ketganda, mutaxassislar ota-onalar tomonidan kamroq gaplashishni va ko'proq tinglashni tavsiya qiladilar. O'smirlar yaxshi ko'radigan ilovalardagi xavfsizlik sozlamalari ota-onalar uchun nazorat qilishning yaxshi yechimi bo'lishi mumkin.

Sensor Tower tahliliy kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda TikTok, Instagram, YouTube va Snapchat kabi mashhur ilovalar AQShdagi o'smirlar orasida eng ko'p yuklab olingan iPhone ilovalari beshligidan joy oldi. Ularning barchasining sozlamalarida foydalanishni cheklashga yordam beradigan ma'lum xavfsizlik sozlamalari mavjud. Bu sozlamalarga misol tariqasida bildirishnomalarni yubormaslik, maxfiylikni himoya qilish kabi imkoniyatlari mavjud.

Bu maqolada har bir ota-ona va o'smir ko'rib chiqishi kerak bo'lgan muhim xavfsizlik sozlamalari va vositalari haqida ma'lumot . Xavfsizlik sozlamalari, shuningdek, onlayn xavflar haqida ochiq gapirish imkoniyatidir: o'smiringizdan o'zini xavfsiz his qilish uchun nima kerakligini so'rang va qanday raqamli chegaralar va sozlamalar ularga erishishga yordam berishi haqida gapiring.

Googlening yangi siyosatiga ko'ra, 18 yoshga to'lmagan odamlar, shuningdek, ularning vasiylari yoki vakolatli vakili kompaniyadan o'smirning fotosuratlarini qidiruv natijalaridan olib tashlashni so'rab onlayn shaklda ariza bilan murojaat qilishlari mumkin. Shuni yodda tutingki, bu faqat qidiruv natijalaridan rasmni olib tashlaydi, rasmlarni tarqatgan veb-saytlardan esa faqat sayt egalari o'chirishi mumkin.

Google qidiruv natijalarida farzandingizning rasmlari bor yoki yo'qligini bilish uchun qidiruv tizimiga uning to'liq ismini kiriting va "Rasmlar" yorlig'ini bosing. Agar siz va farzandingiz rasmni olib tashlashni xohlasangiz, sizga rasmning URL manzili, qidiruv natijalari sahifasining URL manzili va skrinshot olinishi kerak bo'ladi¹⁰.

Qisqa video almashish ilovasi TikTok ota-onalarga o'z akkauntlarini o'smirning akkaunti bilan bog'lash va sozlamalarni, jumladan, ilova uchun kunlik vaqt chegaralarini o'rnatish, o'smirlar to'g'ridan-to'g'ri xabarlarni yuborishi va qabul qila olishi, akkauntlar ochiq yoki shaxsiymi, o'smirlar videolariga fikr bildiradigan odamlarni cheklash va nazorat qilish imkonini beradi. O'smirlar ilovaning qidiruv panelidan foydalanishlari mumkin.

Ammo agar siz o'smir farzandingizga ilovada ko'proq avtonomiya berishni xohlasangiz, sozlamalarni birgalikda muhokama qiling - ular ko'pchiligini o'zlari boshqarishi mumkin.

¹⁰ O'smir farzandingizga Internetda o'zini xavfsiz his qilishiga yordam beradigan xavfsizlik sozlamalaridan foydalaning. Tatum Hanter 2021-yil

TikTokning standart xavfsizlik sozlamalari yoshga bog'liq - agar bolangiz o'z yoshi haqida to'g'ri ma'lumot kiritisa, ilova 13 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun maxsus yaratgan "Kichik foydalanuvchilar uchun TikTok"ga o'tishlari mumkin, u yerda bolalar tanlangan tarkibga ega va hech qanday almashish, xabar almashish yoki sharhlashsiz videolarni ko'rishi mumkin. Kompaniyaning ta'kidlashicha, 13 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar 16 va 17 yoshli bolalarga qaraganda boshqacha standart sozlamalarga ega. Ammo yosh ma'lumotlarini foydalanuvchi o'zi kiritgani uchun bu ma'lumotlarni o'smirning o'zi xohlagan vaqtda soxtalashtirishi oson.

Mavjud maxfiylik va xavfsizlik sozlamalarini ko'rish uchun ilovaning pastki o'ng burchagidagi profil belgisiga, so'ng yuqori o'ngdagi uchta kichik chiziqqa o'xshash menyuga teging. "Maxfiylik"ka o'ting va siz "Shaxsiy hisob" ko'rinishini o'zgartirishingiz mumkin, ya'ni siz baham ko'rgan videolar faqat siz obunachi sifatida ma'qullagan odamlar uchun ko'rinadi holos. Hisob maxfiyligi 16 yoshdan kichiklar uchun sukut holatida turgan bo'lishi kerak.

Undan pastroqda, sizning hisobingizni kuzatish tavsiya etilganlar sifatida kim ko'rishini boshqarishingiz mumkin. Misol uchun, agar siz hisobingizni do'stlaringizning do'stlariga taklif qilishni xohlamasangiz, o'chirish tugmachasini o'chirish holatiga suring.

"Xavfsizlik" sarlavhasining barcha sozlamalari yoqilgan holda bo'lsa, siz baham ko'rgan videolaringizni boshqa odamlar yuklab olishi, videolaringizga izoh qoldirishi, TikTokda siz kuzatayotgan odamlarni ko'rishi va siz baham ko'rgan videolarni o'z profilida ulashishi mumkin. Shuningdek, siz to'g'ridan-to'g'ri sizga yoziladigan xabarlarni o'chirib qo'yishingiz mumkin.

Yuqori chap burchakdagi orqaga yo'nalishli belgini bossangiz, o'zingizni "Sozlamalar va maxfiylik" sahifasiga o'tasiz. "Kontent va faoliyat" bo'limida yuqorida tavsiflangan ota-ona hisobini ulash va "Raqqamli farovonlik" kabi vositalar mavjud bo'lib, u yerda barcha auditoriyaga mos kelmasligi mumkin bo'lgan kamroq "kontentni ko'rish uchun ilovaning cheklangan rejimini yoqishingiz mumkin." Bu orqali TikTok hamjamiyati ko'pchilik uchun zararli deb hisoblagan kontentlar sizning oynagizda ko'rsatilmaydi.

Instagram. Instagram – Facebookka tegishli bo'lgan surat va kichik videolar almashish ilovasi. Instagram yoshi 18 yoshdan kichik bo'lganlar uchun tayyor o'rnatilgan xavfsizlik funksiyalari bilan birga taqdim etiladi.

Agar o'smir notanish odamlarga "ergashmasa" (follow), notanish odamlar Instagramda ularga to'g'ridan-to'g'ri xabar yubora olmaydi. 16 yoshdan kichiklar uchun hisoblar avtomatik ravishda shaxsiy qilib o'rnatiladi, shuning uchun begonalar o'smirning ruxsatisiz ularni do'st sifatida qo'sha olmaydi.

Hisob qaydnomasini ochiqdan shaxsiyga o'zgartirish uchun Instagram ilovasini oching va pastki o'ng burchakdagi kichkina odam belgisini bosing. Keyin yuqori

o'ng burchakdagi uchta kichik chiziqqa o'xshaydigan menyuni oching. "Sozlamalar"ga, keyin "Maxfiylik"ka o'ting va "Shaxsiy hisob" ko'rinishini yoqing.

Ilova, shuningdek, Instagram akkauntlaridan voyaga yetmaganlarga xabarlar yoki do'stlik so'rovlarini yuborish uchun foydalanadigan yoki yaqinda voyaga yetmaganlar tomonidan bloklangan yoki xabar bergan kattalar uchun cheklovlar kiritdi. Bu hisoblar qidiruv paneli yoki tavsiya etilgan kontent bo'limlari orqali bolalarning hisoblarini topa olmaydi va kuzata olmaydi. Agar o'smir shubhali kattalar bilan bog'lansa va u kattalar xabar yuborishga harakat qilsa, ilova xavfsizlik bildirishnomasini ochadi va jo'natuvchini bloklash yoki xabar berishni so'raydi. Instagram vakilining so'zlariga ko'ra, bu shubhali hisoblar o'chirilmaydi, chunki ular ilova qoidalarini aniq buzmagani.

Nihoyat, agar o'smirlaringiz "tadqiqot" yorlig'ida va asosiy fotosuratlar tasmasidagi tavsiya etilgan kontent joylarida kamroq "sezgir" kontentni, jumladan, yalang'och tanalar, zo'ravonlik va giyohvand moddalarni ko'rishni istamasangiz, menyuga qaytib, "Sozlamalar" - "Hisob" - "Sezgir kontentni boshqarish" - "Bundan ham ko'proq cheklash". ("Ruxsat berish" nozik kontent opsiyasi 18 yoshdan kichiklar uchun ko'rsatilmaligi kerak.)

Nozik kontentni cheklash o'smirlar uchun ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kontentlarni filtrlashi bilan birga inson tanasi ustida bajariladigan ayrim sohalarni ham ko'rsatmasligi mumkin masalan, tana massaji, tanaga oid tibbiy bilim kabilarni. Instagramning ta'kidlashicha, filtr o'zining noaniq tavsiya etilgan ko'rsatmalariga asoslanadi. Instagram sizga "sezgir kontent" ustidan ko'proq nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Snapchat. 18 yoshgacha bo'lgan odamlar uchun Snapchat akkauntlari sukut bo'yicha shaxsiydir, ya'ni ular har qanday yangi do'stlarni tasdiqlashlari kerak va begonalar o'smirning Snapchat foydalanuvchi nomini bilmasa yoki umumiy do'st bilan bog'lanmagan bo'lsa, ularni topa olmaydi. Ularning do'stlari ro'yxati ham ko'rinmas qoladi.

Snapchatdagi har bir kishi faqat do'st sifatida qabul qilgan odamlardangina to'g'ridan-to'g'ri xabarlar olishi mumkin. Ilovaning so'nggi imkoniyatlaridan biri foydalanuvchilarni do'stlar ro'yxatini ko'rib chiqishga va keraksiz odamlarni olib tashlashga undaydigan bildirishnomalarni taqdim eta boshladi.

YouTube. Googlening video almashish ilovasi. YouTube 2021-yil avgust oyida o'z siyosatini o'zgartirdi, unda 13 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan odamlar tomonidan yuklangan videolarni faqat video to'g'ridan-to'g'ri ulashilgan bo'lsa ko'rish mumkin holos. Shuning uchun ular o'smirning profilida yoki qidiruv natijalarida ko'rinmaydi.

Ilova avtomatik ijroni ham o'chirib qo'ydi, bu esa yangi video yoqilganda darhol navbatda turadi

Ilova, shuningdek, o‘smirlarga tegishli hisoblar uchun yangi video tugashi bilanoq avtomatik ijroni o‘chirib qo‘ydi. Standart video maxfiyligi ham avtomatik ijro etish sozlamalari ham o‘smir tomonidan osongina o‘zgartirilishi mumkin.

Boshqa ilovalar singari, kompaniya ota-onasi yoki vasiysi ruxsat bermasa, 13 yoshdan kichik odamlarga foydalanishga ruxsat bermasligini aytadi. Google 2015-yilda YouTube Kidsni ishga tushirgan. O‘smirlar hisoblarini kengaytirilgan kontent cheklovlari bilan nazorat qilgan.

Twitch. Twitch – bu 13 va undan katta yoshdagi odamlar uchun mo‘ljallangan jonli translatsiyalar va boshqa videolarni almashish uchun dasturdir. Kontentning katta qismi video o‘yinlar bilan bog‘liq.

Twitchdagi video ko‘pincha real vaqt rejimida uzatilganligi sababli, kompaniya har doim ham ijodkorlar nima deyishi yoki nima qilishini nazorat qila olmaydi. Ammo o‘smiringiz jonli videolar bilan bir qatorda sharhlar oqimida qanday “til”(so‘z)ni ko‘rsatishini filtrlashi mumkin bo‘lgan sozlamalar mavjud, jumladan, haqoratli so‘zlar, adovat, shahvoniy so‘zlar va kamsitishlar kabi so‘zlarni. Garchi zararli “til”(so‘zlar) uchun avtomatlashtirilgan filtrlar tarixda munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

“Til” (so‘z) filtrlarini yoqish uchun istalgan video oqimidagi fikr-mulohazalar maydonining yon tomonidagi uch nuqtali belgini bosing. “Haqoratli tilni yashirish” bandini tanlang. Siz yoqish va o‘chirish mumkin bo‘lgan turli xil filtrlarni ko‘rasiz.

Shuningdek, siz Twitchda notanishlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabarlarini bloklashingiz mumkin. Ilovaning yuqori chap burchagidagi profil belgisiga teging, so‘ng “Hisob sozlamalari”ga, so‘ng “Xavfsizlik va maxfiylik”ka o‘ting va “Begonalarning xabarlarini bloklash” belgisini yoqing.

Discord – bu geymerlar va boshqa onlayn hamjamiyatlarda mashhur bo‘lgan tezkor xabar almashish ilovasi bo‘lib, u o‘smiringiz yoqib qo‘yishi mumkin bo‘lgan xavfsizlik sozlamalari bilan birga keladi. Kompaniya vakilining so‘zlariga ko‘ra, Discorddagi odamlar 13 yoki undan katta yoshda bo‘lishi kerak, ammo yoshni o‘zingiz kiritganingiz uchun buni o‘smir xohlagancha o‘zgartirishi mumkin.

Ushbu sozlamalar ilovaning pastki o‘ng burchagidagi o‘yin boshqaruvchisiga o‘xshab ko‘rinadigan hisob qaydnomasida joylashgan. Belgini bosing, so‘ng “Maxfiylik va xavfsizlik”ka o‘ting. “Xavfsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabarlar” ostidagi “Meni xavfsiz saqlang” sozlamasi ilova barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabarlarini aniq fotosuratlar uchun skanerlashini anglatadi.

Undan pastroqda, o‘smirlar chat jamoalari yoki serverlaridagi odamlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabarlar yuborishga ruxsat beruvchi sozlamani o‘chirib qo‘yish imkoniyatiga ega. Va “Kim sizni do‘st sifatida qo‘shishi mumkin” ostida ular “hamma”, “do‘stlar do‘stlari” va “server a‘zolari” variantlarini ko‘radi.

Xulosa qilib aytganda, sizning farzandingiz yuqoridagi ilovalardan, ijtimoiy tarmoqlardan hozir foydalanmayotgan bo‘lishi mumkin. Lekin kelajakda ham

bulardan mening farzandim foydalanmaydi deb kafolat berolmaysiz. Yuqoridagi sozlamalardan har bir ota-ona xabardor bo'lishi farzandini xavfsiz rivojlanishi uchun kerak bo'ladi. Farzandingizni tarbiyasi yaxshi, axloqiy immuniteti shakllanganiga ishonchingiz komil bo'lsa yuqoridagi sozlamalarning ahamiyati pasayadi, lekin o'smir turli narsalarga qiziquvchan yoshda bo'lganligi sabab ruhiy olami sog'omligiga doim ham kafolat berib bo'lmaydi, tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Virtual olamning zararlari borligi isbotlangan lekin ayni vaqtda farzandlaringizga ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlash ularni xavfsiz saqlashga doim ham yordam bermaydi. Yuqoridagi ma'lumotlar ma'lum miqdorda farzandingizni virtual olam vositalaridan samarali foydalanishiga, uni nazorat qilingizga yordam beradi. O'smirning rivojlanishini bir ota-onaning o'zi nazorat qilishi qiyin bu jarayonga oilaning boshqa a'zolari, jamiyat va davlat muassasalari ham e'tibor berishi lozim. Zamonaviy ilova, dastur, o'yin, content yaratayotganlar o'z yaratgan kontentlari xavfsizligiga, yoshlarga salbiy ta'sir qilmasligiga javobgar bo'lishlari zarur. Lekin asosiy nazorat qilish vazifasi baribir ota-ona va pedagoglar zimmasida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nimalardan voz kechishimiz kerak?. B.Hoshimov
2. Factfulness. H.Rosling – Toshkent: Nihol., 2021-y 26-bet
3. Nimalardan voz kechishimiz kerak? B.Hoshimov
4. Farzandlaringizga Instagramni taqiqlash ularni xavfsiz saqlashga yordam bermaydi. Bu maslahatlar yordam beradi. H.Kelly “The Washington post” 2021-y
5. <https://www.iamexpat.nl/education/education-news/netherlands-ban-mobile-phones-school-classrooms>
6. Farzandlaringizga Instagramni taqiqlash ularni xavfsiz saqlashga yordam bermaydi. Bu maslahatlar yordam beradi. H.Kelly “The Washington post” 2021-y
7. Screenwise: Bolalarning raqamli dunyoda rivojlanishiga (va omon qolishiga) yordam berish. D.Xaytner
8. Screenwise: Bolalarning raqamli dunyoda rivojlanishiga (va omon qolishiga) yordam berish. D.Xaytner
9. O'smir farzandingizga Internetda o'zini xavfsiz his qilishiga yordam beradigan xavfsizlik sozlamalaridan foydalaning. Tatum Hanter 2021-yil
10. O'smir farzandingizga Internetda o'zini xavfsiz his qilishiga yordam beradigan xavfsizlik sozlamalaridan foydalaning. Tatum Hanter 2021-yil